

20-Mart, 2026-yil

**BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARIDA TEXNALOGIYA DARSLARINI
TASHKIL QILISH VA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH**

Saidnazarova Tulganoy Mahmudovna

*“University of Economics and pedagogy” NOTM “Maktabgacha va boshlang‘ich
ta‘lim” kafedrası PhD, dotsenti*

Usmonova Dilnavo Ulug‘bek qizi

*“University of Economics and pedagogy” NOTM Boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishi 2- kurs
talabasi*

Anatasiya: *Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari savodxonligini oshirishda innovatsion texnologiyalardan foydalanishning mazmuni va mohiyati asoslash orqali ularni amaliyotga tatbiq etishga qaratilgan. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini bilish mobaynidagi innovatsiyalar bu - bilimlarni kengaytirish, ma‘lumot olish, qayta ishlash, yangi usullar, texnologiyalar va yondashuvlarni takomillashtiradi. Bolalarning bilish jarayonini yangi falsafiy, kognitiv va ilmiy yondashuvlarni ham qamrab oladi. Innovatsiya nafaqat ta‘limdagi balki barcha sohalar sifatlarini yaxshilashga qaratilgan maqsadli harakat tizimi hisoblanadi. Maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida darslarni tashkil qilishda innovatsion texnologiyalarning shakllanishi haqida fikr mulohazalar yuritiladi.*

Аннотация: *Цель исследования – применение инновационных технологий для повышения уровня грамотности учащихся начальной школы путем обоснования их содержания и сути. Инновации в обучении учащихся начальной школы – это расширение знаний, приобретение, обработка, совершенствование новых методов, технологий и подходов. Процесс обучения детей также включает в себя новые философские, познавательные и научные подходы. Инновация – это система целенаправленных действий, направленных на повышение качества не только образования, но и всех сфер. В статье рассматривается формирование инновационных технологий в организации уроков для учащихся начальной школы.*

Abstract: *The aim is to apply innovative technologies in improving the literacy of primary school students by justifying their content and essence. Innovations in the learning of primary school students are the expansion of knowledge, the acquisition, processing, improvement of new methods, technologies and approaches. The process of children's learning also includes new philosophical, cognitive and scientific approaches. Innovation is a system of purposeful actions aimed at improving the quality not only in education, but also in all areas. The article discusses the formation of innovative technologies in the organization of lessons for primary school students.*

Kalit so‘zlar: *innovatsion texnologiyalar, bilish jarayoni, falsafiy, kognitivilmiy yondashuv*

Ключевые слова: *инновационные технологии, когнитивный процесс, философский, когнитивно-научный подход*

“O‘ZBEKISTONDA UCHINCHI RENESSANS VA INNOVATSION JARAYONLAR JURNALI”

20-Mart, 2026-yil

Keywords: *innovative technologies, cognitive process, philosophical, cognitive-scientific approach*

KIRISH

Xozirgi kunda Oliy ta'lim tizimini rivojlantirishda yurtboshimiz tomonidan belgilab berilgan bir qancha strategik masalalarga asosan ta'lim sohasini modernizatsiya qilish, ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan barqaror rivojlantirish uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlash sifatini oshirish, xalqaro standartlar asosida yuqori malakali, kreativ fikrlaydigan, mustaqil qaror qabul qila oladigan kadrlar tayyorlash, ularni intellektual qobiliyatlarini namoyon etishi va ma'naviy barkamol shaxs sifatida shakllantirish uchun shart-sharoitlar yaratish kabi bir qancha dolzarb vazifalar belgilab berilgan.

Ushbu dolzarb vazifalarni amalga oshirishda barcha fan sohlarini tubdan takomillashtirish, O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risidagi Qonuni”, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da belgilab berilgan davlat ta'lim standartlari asosida to'g'ri ishlab chiqish maqsadga muvofiq.

Barkamol shaxs tarbiyasida albatta mehnat ta'limining alohida o'rnini bor. Bu o'quv fani o'quvchilarda aqliy va jismoniy mehnat turlari, mehnat jamoalari haqida keng tushuncha hosil qilish, mehnatga oid ko'nikma va malakalarni rivojlantirish, ta'limiy maqsadlarga xizmat qilishdir. Maktabdagi texnologiya ta'limi va tarbiyasining maqsadi: o'quvchilarga mehnatga muhabbat va mehnat ahliga hurmat tuyg'usini singdirishdan, o'quvchilarni hozirgi zamon sanoat va qishloq xo'jalik ishlab chiqarishini qurilish transport xizmat ko'rsatish sohalari asoslari va texnologik jarayonlar bilan tanishtirishdan, o'qish va ijtimoiy foydali ish jarayonida ularda mehnat ko'nikmalari va mahoratini hosil qilishdan, ongli ravishda kasb tanlashga va boshlang'ich hunar ta'limini olishga undashdan iboratdir. Texnologiya fani va kasbga tayyorlash vazifalari boshlang'ich maktabda butun, ta'lim-tarbiya tizimi hamda barcha o'quv predmetlari yordamida hal qilinadi.

Asosiy qish Innovatsiya (inglizcha) yangilik kiritish, yangilik degan ma'noni ifodalaydi, texnologiya yunoncha “texnos”- san'at, mahorat va “logos”- fan so'zlaridan olingan bo'lib, innovatsion texnologiya ta'lim-tarbiya shakllari, metodlari va usullariga yangicha yondashish degan ma'noni o'z ichiga qamrab oladi. Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o'qituvchi va o'quvchi faoliyatiga yangilik, o'zgarishlar kiritish. Ta'lim tizimidagi har qanday islohotlar, innovatsiyalar, investitsiyalar, shubhasiz, ta'lim samaradorligini oshirishga va uni zamonaviy ta'lim talablariga to'la qonli javob berishiga qaratilgan. Oliy ta'lim muassasalaridagi samarali o'qitish metodlaridan biri bu interfaol o'qitish metodlaridir. Interfaol so'zi inglizcha so'z bo'lib, «inter» - o'zaro va «act» - harakat qilmoq ma'nolarini bildirib, ularning umumiy mazmuni interfaol - ya'ni o'zaro harakat qilmoq ma'nosini anglatadi. Bunday o'zaro harakat turlariga “o'quvchi – o'qituvchi” va “o'quvchi - o'quvchi” ning maqsadli harakatlarini kiritish mumkin. Interfaol o'qitishda o'qituvchi o'quv faoliyatninig faol tashkilotchisi bo'lib, o'quvchi bu faoliyatning sub'yekti sifatida namoyon bo'ladi. Bu borada boshqa fanlar singari texnologiya fanining asosiy maqsadi va vazifalari :

“O‘ZBEKISTONDA UCHINCHI RENESSANS VA INNOVATSION JARAYONLAR JURNALI”

20-Mart, 2026-yil

boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida mehnatga axloqiy va psixologik tayyorlash o‘quvchilarni boshlang‘ich politexnik bilim bilan qurollantirish texnologiya faniga amaliy tayyorlash, texnologik operatsiyalarning malaka va ko‘nikmalari bilan qurollantirish o‘quvchilarni texnologiya fani jarayonida har tomonlama o‘stirishni tarkib toptirishdan iboratdir. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida texnologiya darslarini tashkil etishda bolalarning darsga bo‘lgan qiziqishini aniqlash lozim, chunki bolalar qiziqqan faoliyatiga kirishimli bo‘ladi. Texnologiya fani o‘z ichiga matematika, tasviriy san‘at, tabiatshunoslik va yana bir nechta fanlarni o‘z ichiga oladi chunki bu fanlarni bolalar o‘zlashtirishi lozim, texnologiya darsida matematikadan – o‘lchashda, tasviriy san‘at - ranglar jilosini, tabiatshunoslik - manzaralarni aks ettiradi. Dars jarayonida albatta mavzuga mos ko‘rgazmalar bo‘lishi kerak, chunki bolalar texnologiya darsida yasalgan buyumini ko‘rip tafakkur qilib, qiziqib yasashga harakat qiladi, darsda ustoz ham bolalar bilan birgalikda yasashi kerak. Darslarni zamonaviy uslubda qiziqarli olib borishi lozim. Dars mobaynida bolalarning diqqat - e‘tiborini darsga qaratish uchun turli xil metodlardan foydalanish kerak. Innovatsiya - inglizcha yangilik kiritish, yangilik degan ma‘noni bildiradi. Texnologiya yunoncha “texnos” san‘at mahorat va “logos” - fan so‘zidan olingan bo‘lib, innovatsion texnologiya ta‘lim tarbiya shakllari, metodlari va usullariga yangicha yondashish degan ma‘noni anglatadi. Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon va o‘qituvchi, o‘quvchi faoliyatiga yangilik, o‘zgarishlar kiritish. Ta‘lim tizimidagi har qanday islohotlar, innovatsiyalar, investitsiyalar, shubhasiz ta‘lim samaradorligini oshirishga va zamonaviy ta‘lim talablariga qaratilgan. Innovatsion texnologiyalar ta‘lim jarayonida o‘quvchilar hamda o‘qituvchi o‘rtasidagi faollikni oshirish orqali o‘quvchilarning bilimlarini o‘zlashtirishini faollashtirish, shaxsiy sifatlarni rivojlantirishga qaratilgan. Interfaol metodlarni qo‘llash dars samaradorligini oshirishga yordam beradi. Dars mobaynida metodlardan foydalanilsa darsning sifat va ta‘lim tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirishda o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi. XXI asrda Ozbekiston ta‘lim tizimini isloh qilish va takomillashtirish ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. O‘z navbatida texnologiya fani yo‘nalishida izlanishlar olib borayotgan olimlarimiz zimmasiga tegishli o‘quv fanlari bo‘yicha o‘quv adabiyotlarini hozirgi davr talabi va ilm - fanning so‘nggi yutuqlarini hisobga olgan holda yangilab borish, ta‘lim jarayoniga innovatsiya va ta‘lim texnologiyalarini joriy qilmoqda. Mamlakatimiz Oliy ta‘lim muassasalarida barcha fanlarni o‘qitish jarayonida innovatsiyalar va ilg‘or xorijiy tajribalarni qo‘llash bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir. Bugungi kunda amaliyotda yangilik va innovatsiya so‘zlari orasida farqlar bor. Yangilik - bu fandagi eng so‘nggi kiritilgan yutuqlar, bilimlar, usullardir. Bu yutuqlar, bilimlar usullarni amalda qo‘llanilishi bilan innovatsiyaga aylanadi. Innovatsion texnologiyalar: fikrlashning kognitiv sxemasini yaratish, o‘z-o‘zini hurmat qilish, o‘qish natijalari orqali o‘zini o‘zi tasdiqlash. Differentsial yondashuvga asoslangan muvaffaqiyatli o‘rganish uchun asos sifatida nazariy materialini yaxshi bilish, har qanday vazifa nazariyaning bir qismi hisoblanadi. Muammoli vaziyat yaratish “chetga o‘tish”, yordamchi savollardan foydalanish, iqtidorli bolalar bilan ishlash kabi, talablarni o‘z ichiga oladi.

“O‘ZBEKISTONDA UCHINCHI RENESSANS VA INNOVATSION JARAYONLAR JURNALI”

20-Mart, 2026-yil

XULOSA

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida texnologiya fanining tarbiyaviy ahamiyati muhim hisoblanadi. O‘quvchilarida mehnat turlari haqidagi tushunchalarni shakllantiradi, mehnatga bo‘lgan qiziqishini hosil qiladi, mehnatsevarlik, mas‘uliyati, intizomlilik, jamoatchilik hissini tarbiyalash kabi tushunchalarni shakllantiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh.M.Tanqidiy tahlil, qat‘iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. Toshkent " Ozbekiston ", 2017.
2. Ozbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7- fevraldagi PF-4947-sonli O‘zbekiston Respublikasining yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida farmoni Ozbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017-yil 6-son 70-modda
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017- yil 15- martdagi Umumiy o‘rta ta’lim to‘g‘risida nizomni tasdiqlash to‘g‘risidagi 140 - sonli Qarori.
4. Karimov I.A.Yuksak ma’naviyat - yengilmas kuch - Toshkent “Manaviyat”, 2008
5. Saidnazarova Tulganoy. “Texnologiya ta’limi nazariyasi va metodika (Darslik). Bosmaxonaga 2025- yil 22- noyabrda berilgan.